

5. Niyozov, I. Y. Tilshunoslikda “diskurs” tushunchasi va uning shakllari (maqola). *tiladabiyot.uz*.
6. Rasulov, Z., & G‘ayratova, O. (2025). Diskurs — lingvopragmatik yondashuv obyektini sifatida. *Actual Problems of Humanities and Social Sciences*, 5(5), 365–368. <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5I5Y2025N60>
7. Rahmatova, G. Lingvopragmatik yondashuv va uning variatsiyalari. *Global lingvistika: yangi yondashuvlar va tadqiqotlar*, 1(2), 300–303. <https://doi.org/10.5281/zenodo.15442714>
8. Gazarova, D. Pragmatic and manipulative potential of personal pronouns in political discourse. *Bulletin of Yerevan University H: Russian Philology*, 8(1), 43–56.
9. Gavrikova, O. E. (2017). Fenomen manipulyatsii v politicheskoy diskurse. *Teoriya yazyka. Filologicheskiy aspekt*, (12). Retrieved from <https://scipress.ru/philology/articles/fenomen-manipulyatsii-v-politicheskoy-diskurse.html>
10. Van Dijk, T. A. (2008). *Discourse and Power*. Palgrave Macmillan.
11. Mukhortov, D. S., & Zhovner, E. A. (2019). US versus them polarization in the US presidential debates of 2000. *RUDN Journal of Language Studies, Semiotics and Semantics*, 10(2), 499–512. <https://doi.org/10.22363/231322992019102499512>
12. Romadlani, M. (2021). Personal pronouns in American presidential political discourse. *Indonesian Journal of EFL and Linguistics*, 6(1). <https://doi.org/10.21462/ijefl.v6i1.356>

O‘ktamova Moxigul Xamidullo qizi, FarDU katta o‘qituvchisi,
uktamovamoxigul@gmail.com

Rasuljonova Zahrobonu Muhammadyusuf qizi, FarDU talabasi,
zahrorasuljanova@gmail.com



INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDA ZAMON KATEGORIYASINING CHOG‘ISHTIRMA TAHLILI

<https://zenodo.org/records/19842536>

Annotatsiya. Ushbu maqolada Ingliz va O‘zbek tillaridagi zamonlar chog‘ishtirma tahlil qilingan. Maqolada har ikki tilda zamonlarning grammatik tuzilishi, ma’no ifodasi hamda qo‘llanishidagi o‘xshash va farqli jihatlari aniqlangan. Maqolada ingliz tilidagi asosiy zamon shakllari o‘zbek tilidagi muqobil zamonlar bilan qiyoslab o‘rganilgan hamda til o‘rganishda uchraydigan asosiy qiyinchiliklar tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: Ingliz tili zamonlari, O‘zbek tili zamonlari, o‘tgan zamon, hozirgi zamon, kelasi zamon, qiyosiy tahlil, grammatika, fe‘l shakllari, vaqt ko‘rsatkichi, sintaksis.

THE COMPARATIVE ANALYSIS OF TENSES IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES

Annotation: This article presents a comparative analysis of tenses in the English and Uzbek languages. It identifies the similarities and differences in the grammatical structure, meaning expression, and usage of tenses in both languages. The main tense forms in English are compared with their corresponding equivalents in Uzbek, and the major difficulties encountered in language learning are analyzed.

Key words: English tenses, Uzbek tenses, past tenses, present tenses, future tenses, comparative analysis, grammar, verb forms, time reference, syntax.

СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ ВРЕМЁН В АНГЛИЙСКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ

Аннотация: В данной статье проводится сравнительный анализ времён в английском и узбекском языках. В статье выявлены сходства и различия в грамматической структуре времён, выражении значения и их употреблении в обоих языках. Основные временные формы английского языка сопоставляются с соответствующими временными формами узбекского языка, а также анализируются основные трудности, возникающие при изучении языка.

Ключевые слова: Времена английского языка, времена узбекского языка, прошедшие времена, настоящие времена, будущие времена, сравнительный анализ, грамматика, формы глагола, временная соотнесённость, синтаксис.

KIRISH

Bugungi globallashuv jarayonida xorijiy tillarni o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, ingliz tilining xalqaro muloqot vositasi sifatidagi o'rni uning grammatik tizimini chuqur o'rganishni talab qiladi. Ingliz va o'zbek tillarida grammatikada zamon kategoriyalari mavjud bo'lib, nutqda voqea-hodisaning sodir bo'lish vaqtini aniq ifodalashga xizmat qiladi. Har ikki tilda zamonlar tuzilishi va qo'llanishi bir-biridan sezilarli darajada farq qiladi. Shu sababli ularni chog'ishtirma tahlil qilish til o'rganuvchilar uchun muhim nazariy va amaliy ahamiyatga ega.

USULLAR VA ADABIYOTLAR TAHLILI

Zamon katgoriyasi – bu harakat yoki holatning nutq momentiga nisbatan vaqt jihatdan joylashuvini ifodalovchi muhim grammatik kategoriya hisoblanadi. Ingliz tilidagi zamon kategoriyasi B. Komri, J. Baybi, R. Perkins, R. Hadlston, G. Pallum, O. Dal kabi ko'plab xorijiy olimlar tomonida tadqiq etilgan.

Xususan, B. Komri zamon va vaqt munosabatlarini o'zining “Zamon” (*Tense*) asarida lingvistik jihatdan tahlil qilib, turli tillardagi zamon kategoriyalarini qiyosiy o'rganishga katta hissa qo'shgan. Shunindek, R. Hadlston va G. Pallumning “*Kambridj ingliz tili grammatikasi*” (*The Cambridge grammar of English language*) nomli maqolasida ingliz tilining nazariy grammatikasida zamon shakllarining tuzilishi va qo'llanishi batafsil yoritib berilgan. Ularning tadqiqotlari ingliz tilidagi zamon tizimining murakkabligini ilmiy asosda tushuntirishga xizmat qiladi.

Rus tilshunosligida ham zamon kategoriyasi muhim ahamiyatga ega bo'lib, bu yo'nalishda M. Bloh, Y. Paducheva, A.N. Morozova, A. Nenasheva, E. Guseva kabi qator yirik tilshunis olimlar ilmiy izlanish olib brogan.

Jumladan, M. Blohning *“Nazariy ingliz tili grammatikasi va grammatikaning nazariy asoslari”* (*Theoretical English grammar and the theoretical bases of grammar*) asarida ingliz tili nazariy grammatikasini o'rganishda zamon shakllarining semantik talqiniga alohida e'tibor qaratilgan hamda vaqt kategoriyasining nutqdagi ifodasini ilmiy asosda yoritib bergan.

O'zbek tilshunosligida zamon kategoriyasi bo'yicha qator ilmiy tadqiqotlar olib borilgan bo'lib, A. Abdurazaqov, Sh. Rahmatullayev, A. Ismoilov, L. Nuriddinova, M. Rustamov, Z. Isakulov kabi o'zbek olimlari tomonidan fe'l zamon shakllarining mifologik tuzilishi, ma'no ifodasi hamda ularning nutq jarayonidagi qo'llanish xususiyatlari o'rganib chiqilgan.

Xususan, A. Abdurazaqov o'zining *“Hozirgi o'zbek tilida fe'l kategoriyalari”* asarida fe'lning zamon, mayl va nisbat kategoriyalarini tizimli ravishda tahlil qilib, zamon shakllarining morfologik tuzilishi hamda semantik xususiyatlarini ilmiy asosda yoritgan. Shuningdek, Sh. Rahmatullayev *“Hozirgi adabiy o'zbek tili. Grammatika.”* asarida zamon kategoriyasining grammatik mohiyati, uning nutq jarayonidagi qo'llanishi hamda ma'no nozikliklarini batafsil tahlil qilgan. Ushbu asarda zamon shakllarining sintaktik va semantik jihatlari keng yoritilib, ularni boshqa tillar bilan qiyosiy o'rganish uchun nazariy asos yaratilgan.

NATIJALAR

Mazkur tadqiqot doirasida ingliz va o'zbek tillarida zamon kategoriyasi o'tgan, hozirgi va kelasi zamon kesimida qiyosiy jihatdan tahlil qilindi. O'rganish jarayonida har ikkala tilda zamon kategoriyasi harakatning nutq momentiga nisbatan vaqt munosabatini ifodalashi aniqlandi. Biroq zamon shakllarining grammatik realizatsiyasi, aspektual tizimi hamda semantik differensiasiyasi jihatidan sezilarli farqlar mavjudligi kuzatildi.

O'tgan zamon tizimi tahlili natijasida ingliz tilida o'tgan zamon ichida aspektual farqlanish mavjudligi aniqlandi. Past Simple shakli o'tmishda sodir bo'lgan oddiy faktni bildirsa, Past Continuous harakatning muayyan vaqt davomida jarayon holatida bo'lganligini ifodalaydi, Past Perfect esa bir o'tgan harakatning boshqa o'tgan harakatdan oldin sodir bo'lganligini ko'rsatadi. Demak, ingliz tilida o'tgan zamon shakllari vaqt bilan bir qatorda harakatning ichki tuzilishini ham grammatik jihatdan ifodalaydi. O'zbek tilida esa o'tgan zamon asosan *-di* affiksi orqali ifodalanadi va bajarilgan harakatni bildiradi. Shuningdek, *-gan* shakli natijaviylik yoki tajriba ma'nosini, *-ibdi* shakli esa eshitilganlik yoki bilvosita xabar ma'nosini anglatishi o'rganib chiqildi. Natijada ingliz tilida o'tgan zamon analitik va ko'p komponentli tizimga ega ekanligi, o'zbek tilida esa sintetik affiksial tizim ustunligi aniqlanadi.

Hozirgi zamon tahlilida ingliz tilida Present Simple va Present Continuous shakllari o'rtasida qat'iy grammatik va semantik tafovut mavjudligi kuzatildi. Present Simple odatiy, takrorlanuvchi yoki umumiy haqiqatni bildiradi, Present Continuous esa ayni nutq momentida davom etayotgan harakatni ifodalaydi. O'zbek tilida hozirgi zamon *-yapti* shakli orqali davomiylik ma'nosida, *-adi* shakli esa umumiy yoki odatiy harakat ma'nosida qo'llanilishi

aniqlandi. Shu bilan birga, -adi shaklining kelasi zamon ma'nosini ham ifodalashi o'rganildi. Bu holat o'zbek tilida zamon shakllarining kontekstga bog'liqligini ko'rsatadi.

TAHLIL

Kelasi zamon tizimi tahlili jarayonida ingliz tilida kelajak ma'nosi bir nechta grammatik vositalar orqali ifodalanishi aniqlandi. Xususan, *will* shakli spontanik qaror yoki taxminni bildiradi, *be going to* esa oldindan rejalashtirilgan harakatni anglatadi. Ba'zi hollarda Present Continuous va Present Simple ham kelajak ma'nosida qo'llanilishi kuzatildi. O'zbek tilida esa kelasi zamon *-adi* va *-moqchi* shakllari orqali ifodalanadi. *-moqchi* shakli niyat ma'nosini, *-adi* esa umumiy kelajak harakatini bildiradi. Shunday qilib, ingliz tilida kelasi zamon shakllari ichida semantik differensiasiya kengroq rivojlangan bo'lsa, o'zbek tilida kelajak ma'nosi ko'proq affiks va kontekst yordamida aniqlanishi kuzatildi. Tadqiqot davomida zamon shakllarining funksional ko'chishi holatlari ham aniqlanadi. Ingliz tilida Present Simple jadval asosidagi kelajakni ifodalashi, Past Simple esa ba'zan xushmuomalalik ma'nosida qo'llanishi kuzatildi. O'zbek tilida ham hozirgi zamon shaklining kelajak ma'nosida ishlatilishi yoki o'tgan zamon shaklining yumshoq so'rov ma'nosida qo'llanishi aniqlanadi. Bu esa zamon kategoriyasi har ikki tilda ham nafaqat temporal, balki pragmatik funksiyani bajarishini ko'rsatadi.

Ingliz va O'zbek tillarida zamon kategoriyasining qiyosiy jadvali:

Zamon turi	Ingliz tili	Ifoda usuli	O'zbek tili	Ifoda usuli	Asosiy farq
O'tgan zamon	Past simple, Continuous, Perfect	Yordamchi fe'l+fe'l shakli	-di, -gan, -ibdi	Affiks	Ingliz tilida aspect tizimi rivojlangan
Hozirgi zamon	Present simple/continuous	Analitik shakl	-yapti, -adi	Sintetik shakl	-adi ikki zamon ma'nosini bildirishi mumkin
Kelasi zamon	Will, going to, Present forms	Modal + analitik	-adi, -moqchi, -ajak	Affiks + leksik	Ingliz tilida kelajak shakllari ko'p

Umumiy tahlil natijasida ingliz va o'zbek tillarida uch asosiy zamon mavjudligi, biroq ingliz tilida zamon tizimi aspekt bilan integratsiyalashgan analitik model asosida shakllangani, o'zbek tilida esa sintetik affiksial tizim ustunligi aniqlanadi. Shunday qilib, ikki til zamon tizimining qiyosiy o'rganilishi ularning strukturaviy va funksional xususiyatlarini ilmiy asosda yoritishga xizmat qiladi.

MUHOKAMA

Ingliz va o'zbek tillarida zamon kategoriyasining qiyosiy tahlili shuni ko'rsatdiki, mazkur grammatik kategoriya nafaqat vaqt munosabatlarini ifodalovchi morfologik vosita, balki har bir tilning kognitiv va madaniy tafakkur modeli bilan ham chambarchas bog'liqdir. Zamon shakllari orqali harakatning nutq momentiga nisbatan joylashuvi ifodalansa-da, ularning strukturaviy tashkil topishi va semantik differensiasiyasi har ikki tilning tipologik xususiyatlarini namoyon etadi. Tadqiqot natijalari ingliz tilida zamon tizimi aspekt bilan integratsiyalashgan analitik model asosida shakllanganini, o'zbek tilida esa zamon ma'nosi asosan sintetik affikslar orqali ifodalanishini ko'rsatdi.

O'rganish jarayonida ingliz tilida uch asosiy zamon doirasida ichki semantik tafovutlar ancha keng rivojlanganligi aniqlandi. Xususan, o'tgan zamon ichida davomiylik va tugallanganlik grammatik jihatdan ajratiladi, hozirgi zamonda esa odatiy va ayni jarayon ma'nolari qat'iy differensiallashgan. O'zbek tilida esa zamon shakllarining semantik yuklamasi ko'proq kontekstual omillar orqali aniqlanishi kuzatildi. Bu holat o'zbek tilida grammatik shakllarning funksional moslashuvchanligini ko'rsatadi.

Shuningdek, zamon shakllarining transpozitsiyasi har ikki tilda ham mavjudligi tadqiqot davomida aniqlandi. Masalan, hozirgi zamon shaklining kelajak ma'nosida qo'llanishi yoki o'tgan zamon shaklining pragmatik yumshoqlik ifodasi sifatida ishlatilishi zamon kategoriyasining faqat temporal emas, balki pragmatik vazifani ham bajarishini tasdiqlaydi. Bu esa zamon kategoriyasining semantik ko'lamini grammatik chegaradan kengroq ekanligini ko'rsatadi.

Tahlillar shuni ham ko'rsatdiki, ingliz tilida zamon va aspektning integratsiyalashgan tizimi harakatning ichki davomiyligi va natijaviyligini aniq grammatik vositalar orqali ifodalash imkonini beradi. O'zbek tilida esa natijaviylik, tajriba yoki eshitilganlik ma'nolari affikslar va leksik birliklar yordamida beriladi. Natijada har ikki til zamon tizimi inson tafakkurining vaqtini konseptuallashtirish usullaridagi farqlarni aks ettiradi.

XULOSA

Yuqoridagi mulohazalardan kelib chiqib aytish mumkinki, ingliz va o'zbek tillarida zamon kategoriyasi umumiy semantik asosga ega bo'lsa-da, ularning grammatik strukturalari va funksional imkoniyatlari turlicha rivojlangan. Mazkur qiyosiy tadqiqot zamon kategoriyasining tipologik va funksional xususiyatlarini aniqlash bilan birga, tarjimashunoslik va amaliy grammatika sohalarida ham muhim ahamiyat kasb etadi. Zamon shakllarining chuqurroq o'rganilishi ikki til o'rtasidagi grammatik muvofiqlik va tafovutlarni yanada aniqlashtirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdurazoqov, A. (1992). Hozirgi o'zbek tilida fe'l kategoriyalari. Toshkent: Fan nashriyoti.
2. Blokh, M. Y. (1983). A Course in Theoretical English Grammar. Moscow: Vysshaya Shkola.
3. Bybee, J., Perkins, R., & Pagliuca, W. (1994). The Evolution of Grammar: Tense, Aspect and Modality in the Languages of the World. Chicago: University of Chicago Press.

4. Comrie, B. (1976). Tense. Cambridge: Cambridge University Press.
5. Dahl, Ö. (1985). Tense and Aspect Systems. Oxford: Basil Blackwell.
6. Huddleston, R., & Pullum, G. K. (2002). The Cambridge Grammar of the English Language. Cambridge: Cambridge University Press.
7. Ismoilov, A. (2008). O'zbek tilida fe'l zamon kategoriyasi. Toshkent: Universitet nashriyoti.
8. Nuriddinova, L. (2014). O'zbek tilida zamon va aspekt munosabatlari. Toshkent: Fan va texnologiya.
9. Quirk, R., Greenbaum, S., Leech, G., & Svartvik, J. (1985). A Comprehensive Grammar of the English Language. London: Longman.
10. Rahmatullayev, Sh. (2006). Hozirgi adabiy o'zbek tili. Grammatika. Toshkent: O'qituvchi.

O'ktamova Moxigul Xamidullo qizi, FarDU katta o'qituvchisi,

uktamovamoxigul@gmail.com

Eraliyeva Umida Alijon qizi, FarDu talabasi, umidaeraliyeva@gmail.com



INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDAGI ANTONIMLARNING SOLISHTIRMA TAHLILI

<https://zenodo.org/records/19842614>

Annotatsiya. Ushbu maqolada ingliz va o'zbek tillaridagi antonimlar chog'ishtiriladi. Tadqiqotda antonimlarning tuzilishi, ishlatilishi va semantik xususiyatlari ikki tilda o'rganiladi. Shuningdek, antonimlar matn tuzilmasini tushunishga yordam berishi, kontrast va qarama-qarshi fikrlarni aniqlashdagi roli, hamda til o'rganishda samarali vosita sifatida ishlatilishi ham ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: antonimlar, qarama-qarshi ma'no, leksik-semantik tahlil, o'zbek tili, ingliz tili, semantika, tilshunoslik.

THE COMPARATIVE ANALYSIS OF ANTONYMS IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES.

Annotation. This article presents a comparative analysis of antonyms in the Uzbek and English languages. The study investigates the structural, functional, and semantic characteristics of antonyms in both languages. Furthermore, it explores the role of antonyms in facilitating text comprehension, their significance in identifying contrastive and opposing meanings, and their effectiveness as a pedagogical tool in language learning.

Keywords: antonyms, opposite meaning, lexical-semantic analysis, Uzbek language, English language, semantics, linguistics.